



HAYOT DAVOMIDA TA'LIM OLIH: YANGI PARADIGMALAR VA KUTILADIGAN NATIJALAR

FAN, TA'LIM VA AMALIYOT INTEGRATSIYASI

ISSN: 2181-1776

Shodiyeva Jamila Xolboyevna

SVXTXQTMOHM o'qituvchisi

AMIR TEMUR O'GITLARINING TA'LIM-TARBIYADA TUTGAN O'RNI

Annatsiya. Ushbu maqolada boshlang'ich sinf o'quvchilarining ta'lim-tarbiyasida A.Temurning o'gitlarini muhim tarbiya vositasi sifatida o'rganish va u tomonidan yaratilgan adabiyotlar bilan tanishish, darslarda targ'ib qilish bo'yicha ma'lumotlar berilgan.

Kalit so'zlar: Amir Temur, orzu-havas, mehnatga chanqoqlik, ona Vatan, mehr-muhabbat, fidoiylik, milliy g'urur, matonat, mehr-oqibat, do'stlik, ezgulik

Ma'lumki, tarbiya ko'proq ta'lim jarayonida berib boriladi. Bolalarga maktabga kelgan kundan boshlab, bilim olishga havas tuyg'isi shakllantiriladi. O'quvchilarda asta-sekin bilim olishga ehtiyoj paydo bo'ladi va bu orqali o'quvchilar ma'naviy ozuqa ola boshlaydilar. Bu bilan bolada kelajakka intilish, orzu-havas, mehnatga chanqoqlik, ona Vatanga mehr-muhabbat, fidoiylik, milliy g'urur, matonat, mehr-oqibat, do'stlik, ezgulik kabi yuksak xislar paydo bo'ladi.

Jumladan, sharq allomalari qoldirgan boy meros asosida ta'lim-tarbiya berish muhim ahamiyat kasb etadi. Ulug' allomalarimiz asarlarida bolalarga go'daklik chog'idanoq kattalarga hurmat va keksalarni e'zozlash, ota-onaga alohida ehtirom ko'rsatish, o'zidan kichiklar izzatini o'rniga qo'yish kabi ajoyib qadriyatlarimizga tayanib ish ko'rishga chaqiriladi.



Shulardan biri sohibqiron bobomiz A.Temur asarlari, o'g'itlari misolida o'quvchilar ongiga ta'limiy, tarbiyaviy tushunchalarni singdirish muhim ahamiyatga egadir.

Dastavval shuni aytilish kerakki, Amir Temur, odob-axloq, iymon-etiqod, ta'lim-tarbiya sohasida o'zi yuksaklikka, mukammallikka erishgan siymolardan biridir. Bunga ishoch hosil qilish uchun uning o'zi tomonidan yaratilgan odob-axloqqa oid qoidalar, o'g'itlar, pand-nasihatlarini, shuningdek, Sohibqiron haqidagi tarixiy asarlarni ko'zdan kechirish kifoya.

Amir Temurning ibratli, hayotiy pand-nasihatlarini va o'g'itlarining har bir mazmun va ma'no kengligi, mantiqning kuchliligi, teranligi, ta'siri, umuminsoniy qadriyatlar asosiga qaratilganligi bilan alohida ahamiyat kasb etadi, ularni bitmas tunganmas xazina, odob-axloqqa oid dasturlar deya olamiz. Bu o'g'itlar sohibqironning juda mashaqqatli va sertashvish, goh muvaffaqiyatli, goh muvaffaqiyatsiz, goh quvonchli, goho anduhli umirining ijodiy mevasidir. Bu o'g'itlar xalqlarning bir maqsad sari birlashtirgan, jipslashtirgan, muvaffaqiyatlarga erishtirgan sehrli tarbiyaviy kuchga ega bo'lgan durdona-pedagogikadir.

Buyuk bobomiz Amir Temur asarlarida bola ta'lim-tarbiyasiga, dunyoqarashining kengayishiga va shaxs rivojlanishiga oid qimmatli fikrlar ko'plab bayon etilgan. Xalqimizga xos bo'lgan tortinchoqlik, andisha kabi psixologik xususiyatlarni chuqur anglagan ulug' bobomiz insonni faol bo'lishga, bilim egallashga, dono bo'lishga chaqiradi:

“Musulmonlarga diniy masalalardan ta'lim berib, shariat aqidalari va islom dini ilmlari: tafsir, hadis, fiqhdan dars bersinlar deb, har bir shaharga olimlar va mudarrislar tayin qildim.”

“So'zlaguvchi gar nodon erur, tinglaguvchi dono o'lsin”

“Ulamo bilan suhbatda bo'l va pok niyatli, toza qalbli kishilarga talpin. Bularning himmatlaridan ulush tilanib, muborak nafaslarini bilan duo-fotiha berishlarini iltimos qil”

Xalqimiz farzandlarini doimo tabiatga mehrlanib bo'lish, tevarak-atrof, suv, havo, tuproq, hayvonot nabo'at olamini asrab-avaylash, insonni oliy qadriyat deb bilish, uning haq-huquqlarini himoya qilish ruhida tarbiyalagan. Bular haqida ham A.Temurdan shunday bebaho o'g'it va yo'l-yo'riqlar, umuminsoniy ahamiyatga molik fikrlar bayon etilganki, ular hozirga qadar ham o'z qimmatini yo'qotmagan.

“Hokimlar, sipoh va raiyatdan qaysi birining xalqqa jabr-zulm yetkazganini eshitsam, ularga nisbatan darhol adolatu insof yuzasidan chora ko'rdim”

“Uzoq-yaqindan biron kishi kelib, mening majlisimga kirar ekan, qaysi toifadan bo'lsa ham, davlatim dasturxonini ne'matidan uni quruq qaytarmasinlar.”

O'quvchi shaxsini rivojlantirish, dunyoqarashini o'stirishda buyuk allomamizning o'rni katta. Uning hayoti, ijodi, axloqiy ta'lim va o'g'itlari yosh avlodni tarbiyalashda meros hisoblanadi. Uning ijodiga xos xususiyat – ilm-ma'rifatni ulug'lash, axloq masalalari, Vatanni sevish, insonparvar bo'lishga undashdan iborat bo'lgan.

Ha, kelajakka ishonchimiz, umidimiz bo'lgan farzandlarning sog'lom, jismoniy baquvvat, ruhiy rivojlangan, bilimdon, barkamol inson bo'lib etishida zamonaviy



bilimlar bilan bir qatorda butun dunyoda umuminsoniy qadriyat sifatida e'zozlanadigan boy ilmiy-badiiy merosimiz asosiy tayanch vazifasini o'taydi. Shu bois ham farzandlarimizga ilk ta'lim berish bosqichida, bola shaxsining to'laqonli shakllanishida zamonaviy ilm-fan yutuqlari va ajdodlarimiz yaratgan buyuk qadriyatlar uyg'unlashgan holda o'zlashtirilishi zarur.

Komillik mazmunida o'tmishimizning boy ma'naviy merosi, ulug' mutafakkirimizning ilg'or ta'limoti, tafakkur durdonalari mujassamlashganki, ular ma'naviy-axloqiy tarbiyada muhim va qimmatli manba hisoblanadi. Chunki, o'tmish ma'naviy-axloqiy tafakkuri ilm-ma'rifat, ta'lim-tarbiya sohasidagi benazir fikrlar, axloqiy qarashlar bugungi taraqqiyot uchun ham, yosh avlod kamoloti uchun ham nihoyatda ahamiyatlidir. Shunga ko'ra biz uchun qadrlı bo'lgan Amir Temur kabi ulug' mutafakkirlarimizning ma'naviy-axloqiy qarashlari va qadriyatlaridan O'zbekiston istiqlolini mustahkamlashda, o'quvchilar ma'naviy-axloqiy kamolotini tarbiyalashda, kundalik turmushimizda keng foydalanishimiz maqsadga muvofiqdir.

Ta'lim tizimida har jihatdan xalqimizning boy ma'naviy qadriyatlari hisoblanmish mashhur alloma va sarkardaning ma'naviyatga doir o'gitlarini o'rganish muhim ahamiyatga egadir. Zero, ularning asarlarida axloq-odob doimo ulug'langan. Chunki, xulq-odob insonga beqiyos husn va nazokat bag'ishlaydi, ota-onaga hurmat, mehr-oqibat, mehnatga muhabbat ruhida tarbiyalash imkonini beradi.

Amir Temur o'z o'gitlarida ma'naviy-axloqiy g'oyalarni tarannum etib, xalqni oriflik, fozillik, komillik darajasiga ko'tarishga chog'langanlar.

Buyuk sarkarda o'zining butun hayoti va ijodi davomida inson hayotining negizi bo'lgan jismoniy, ma'naviy-axloqiy tarbiyaga katta beradi. Yosh avlodga ta'lim-tarbiya berishda vaqtni ham, kuchni ham ayamalikka da'vat etadi.

Buyuk sarkarda o'zining ma'naviy-axloqiy tarbiya tizimida hunar o'rganishga ham katta e'tibor qaratadi.

Hunarli bo'lish xalqparvar, bilimli, olijanob fazilatlar egasi bo'lishga zamin hozirlaydi. Buning uchun tarbiya etakchi rol o'ynamog'i lozim. Shu bilan birga hunar qobiliyatni, iqtidorni rivojlantiradi va bolalarni yomon xulqli bo'lishdan saqlaydi deydi.

Shuningdek, A.Temur ma'naviy-axloqiy tarbiya yordamida bolalarga ilm-ma'rifat berib, ularni odobga o'rgatishni muhim vazifa qilib qo'yadi. Bola shaxsi kamolotida tarbiyaning yuksakligi alohida ta'kidlanadi.

Amir Temur bobomizning ma'naviy-axloqiy qarashlarida komillik muhim o'rin tutadi. Uningcha, komillik buyuk insoniy ne'mat bo'lib, u insonning jahon farzandi mavqeiga ko'tarilishini xohlagan va xuddi shu mavqeni komillikning oliy cho'qqisi deb bilgan.

Buyuk sarkarda o'z davrida komil insonlarni «ahli ma'ni» deb bilgan. «Ahli ma'ni» bu fikrli odamlardir. Fikrsiz kishining ongida ma'ni chuqurligi bo'lmaydi. Fikrlash, haqiqatni anglash yoxud mustaqil mushohada yuritish yuritish demakdir. «Ahli ma'nilik» tufayli axloqiy ong rivojlanadi, odam va olam taqdiriga vijdon bilan qarash qobiliyati shakllanadi. «Ahli ma'ni»li kishilar guruhiga oqil va dono, kamtar va olijanob, haqiqatparvar va fidoiylarni kiritish mumkin deb fikr qiladilar. Bunga quyidagi o'gitlarini keltirishimiz mumkin: «Yuz ming otliq qila olmagan ishni, bir



to‘g‘ri tadbir bilan amalga oshirish mumkin”, “Bugungi ishni ertaga qoldirma”, “Har mamlakatda adolat eshigini ochdim, zulm va sitam yo‘lini tosdim”, “Kuch adolatdadir”, “Birni ko‘rib fikr qil, birni ko‘rib shukur qil”, “Filning dumi bo‘lguncha, chumolining boshi bo‘l”, “Avval yo‘ldosh, keyin yo‘l”, “Adovat emas, adolat yengadi”, “Ishon, ammo shubha qil”, “Til qilichdan o‘tkir”, “El tupursa ko‘l bo‘lur”, “Yaxshi odam yurt tuzar, yomon odam yurt buzar”, “Yaxshi otga bir qamchi, yomon otga ming qamchi” o‘g‘itlari

A.Temurning benazir merosini ilmiy asosda chuqur o‘rganish, muqaddas yurtimiz zamini azal-azaldan ulug‘ allomalar, aziz avliyolar vatani bo‘lib kelganini yurtdoshlarimiz va xalqaro jamoatchilik o‘rtasida keng targ‘ib qilish, milliy-diniy qadriyatlarimizni asrab-avaylash va rivojlantirish, shu asosda yosh avlodni ezgu g‘oyalar ruhida tarbiyalash, ularning qalbida Vatanga muhabbat va sadoqat tuyg‘usini kuchaytirishning asosiy omili hisoblanadi.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR

1. Hamdamov U. O‘qish kitobi 3-sinf o‘qituvchi Nashriyot .Toshkent 2019
2. Matjonov S., Shohjalilov A. Gulomova X. va b.q. O‘qish kitobi 4-sinf .Qayta ishlangan 6-nashri. Toshkent.2020
3. Buyuk ajdodlarimiz “O‘zbekiston milliy ensiklopediyasi” “Davlat ilmiy nashriyoti” Toshkent 2011.
4. G‘aniyeva G. Amir Temur jasorat darslari va saboqlari “Navro‘z” nashriyoti Toshkent.2015